



UDK:811.523

Surayyo MUQUMOVA
Navoiy davlat universiteti dotsenti
E-mail: surayyomuqumova@3gmail.com

PhD K. Ulug'murodova taqrizi ostida

PHRASES RELATED TO THE ZOONYM "CAMEL" AND THEIR ANALYSIS

Annotation

Camels have been effectively used since ancient times as a means of transportation and pack animals. In the regions of Uzbekistan, especially in the Republic of Karakalpakstan, Bukhara, and Navoi regions, camel breeding still receives significant attention. The camel holds great importance in the lifestyle and culture of the people, which is also reflected in the language. The article analyzes the semantic structure of the zoonym "tuya" (camel). Information about different types of camels is provided. The use of the zoonym "tuya" in proverbs and idiomatic expressions and their linguocultural aspects are also interpreted.

Key words: Zoonym, types of camels, types of camels by age and gender, proverbs, idioms, national-cultural semes, analysis.

ЕДИНСТВА СВЯЗАННЫЕ С ЗООНИМОМ « ВЕРБЛЮД », И ИХ АНАЛИЗ

Аннотация

Верблюд с древних времен эффективно использовался в качестве средства передвижения и вьючного транспорта. В регионах Узбекистана, особенно в Республике Каракалпакстан, Бухарской и Навоийской областях, верблюдоводству по-прежнему уделяется большое внимание. В быту и культуре народа значение верблюда велико, что отражается и в языке. В статье проанализирована семантическая структура зоонима «туя» (верблюд). Приведена информация о видах верблюдов. Рассмотрено употребление зоонима «туя» в пословицах и фразеологизмах, а также их лингвокультурологические аспекты.

Ключевые слова: Зоонимы виды верблюдов, виды верблюдов по возрасту и полу, пословицы, фразеологизмы, национально-культурные семы, анализ.

“TUYA” ZOONIMIGA ALOQADOR BIRLIKLAR VA ULARNING TAHLILI

Annotatsiya

Harakat vositasi, ulov sifatida qadimdan tuyadan unumli foydalanilgan. O'zbekiston hududlarida, ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy viloyatlarida tuyachilikka hozir ham e'tibor beriladi. Xalqimiz turmush tarzi hamda madaniyatida tuyaning ahamiyati katta bo'lgan va bu tilda ham o'z aksini topgan. Maqolada “tuya” zoonimining semantik strukturasi tahlil qilingan. Tuya turlari haqida ma'lumot berilgan. “Tuya” zoonimining maqol va iboralar tarkibida qo'llanishi va ularning lingvokulturologik jihatlari talqin qilingan.

Kalit so'zlar: Tuya zoonimi, tuya turlari, yosh va jins jihatdan tuya turlari, maqollar, iboralar, milliy-madaniy semalar, tahlil.

Kirish. Har bir millat o'zining milliy urf-odatlarini, ming yillik qadriyatlarini, tarixi, madaniyati bilan ajralib turadi. Shu bilan millatning turmush tarziga rang-baranglik bag'ishlaydi. Xalqimizning turmush tarzi va madaniyatida tuyaning ahamiyati katta bo'lgan va bu tilda ham o'z aksini topgan. Tuya – bir yoki ikki o'rkachli, juft tuyoqli, asosan, yuk tashish uchun xizmat qiladigan, suvsizlikka chidamli sutemizuvchi ish hayvoni. O'zbekiston hududlarida, ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy viloyatlarida tuyachilikka hozir ham e'tibor beriladi.

Tuyalar evolyutsiyasi jarayonida quruq cho'l va dashtlarda yashashga moslashgan (tog'li joylar va nam iqlimli yerlarda yashay olmaydi). Ular cho'l va dashtlarda dag'al o't va xashaklar, yantoq, saksovl bilan oziqlanadi, suvni kam ichadi (sho'r suvni ham ichaveradi). Yotganda gavdasining yerga tegib turadigan qismlarida, ko'kragi, tirsagi va tizzasida qadoqli tuzilmalar bor. Shu tufayli issiq (70°gacha qizigan) yerda ham yota oladi. Tuyalar semirtirilib so'yiladi, go'shti iste'mol qilinadi, Ikki o'rkachlilardan 5 - 10 kg, bir o'rkachlilardan 2-4 kg jun qirib olinadi, junidan movut, trikotaj, gilam, har xil kiyimbosh, paypoq, ro'mol, adyol kabi buyumlar, sutidan shifobaxsh qimron tayyorlanadi. Tuya ko'chmanchi xalqlar

hayotida qadimdan muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, oq tuyalar ko'proq qadrlangan.[1] Mazkur ma'lumotlar “tuya” zoonimi bilan aloqador ko'chma ma'nolar, ibora va maqollarning semantik tarkibi bilan aloqadorlik jihati bor.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Tuya” zoonimining semantik strukturasi haqida “O'zbek tilining izohli lug'ati”da [2], “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”da esa zarur ma'lumotlar berilgan. Z.Xolmanova, D.Toshevalarning “Zoonim komponentli paremlarning izohli lug'ati” [3] tuya zoonimi bilan bog'liq frazema va maqollarning izohi berilgan. B.Zaripovning “Zoonimlarning badiiy san'at turlarini hosil qilishdagi ishtiroki” (Alisher Navoiy asarlari misolida) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ham zarur ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Til insonlar orasida muhim aloqa vositasi bo'lishi bilan birga, olam haqidagi bilimlarni to'plovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi vosita hamdir. Maqolada “tuya” zoonimining lingvistik, kognitiv, lingvokulturologik vazifa bilan birgalikda o'rganishga e'tibor qaratilgan va mavzu metodologiyasi kognitiv, lingvokulturologik aspekt doirasida ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbek tilida tuya zoonimi va unga aloqador birliklar talaygina. Ma'lumki, tuyalar bir o'rkachli va ikki o'rkachli bo'ladi shunga ko'ra quyidagi nomlar bilan ataladi:

Nor – Bir o'rkachli erkak tuya. Nor tuya. Ko'chma ma'noda “baquvvat, mard yigit” ma'nosida qo'llanadi: Qatorida noring bo'lsa, yoking yerda qolmaydi. (Maqol)

Bo'g'ra / bug'ro/ buvra (shevada), bug'ro / –Ikki o'rkachli nar tuya

Gazat (shevada) – Ikki o'rkachli tuya.

Jo'ng (folklorida). Bir o'rkachli tuya. Bo'ta o'lsa, jo'ng tuyalar bo'zlaydi, Olqor qochsa, baland tog'ni ko'zlaydi. (“Hasanxon”)[5]

Bo'ta – tuyaning bir yoshgacha bo'lgan bolasi, bo'taloq.

Kushak (shevada) – bo'taloq. Tuya o'rnini ko'shak bosadi, deganlaridek... (M. Qo'shjonov, Diydor.)

Do'non [mo'g'ulcha] – uch yoshga to'lib, to'rt yoshga o'tgan ot yoki tuya.

Lo'k (forscha — kalta yungli, yuk tashuvchi tuya) Boshi kichikroq, bo'yni uzun, bir o'rkachli katta tuya, yetakchi tuya. [6] Qatoriga tirkalgan lo'k bilan norcha, Ustiga yuklangan qirmizi parcha. (“Alpomish”). Shevada urgochi tuyaga nisbatan lo'k so'zi qo'llanishi uchraydi.

Lo'kcha – yosh tuya. Muna tog'da bo'ktarilgan qormisan, Qatorga tirkalgan lo'kcha normi-san. (“Alpomish”).

Harvona (arxaik so'z). Lo'k, tuyaning urg'ochisi.

Bodpo(y) (forscha - shamoldan tez, yugurik, yo'rg'a). Yelib tez yuradigan, uchqur, chopqir (ot, tuya haqida). Shu daryodan irg'ir kuning, Ey qiblagohimning bodpoyi. (“Nurali”). Ostida o'ynaydi bodpoy. (“Nurali”). So'zginangdan yo'lovchini kuldirgin, Bodpoy tuya minib, o'zing yeldirgan. (“Yusuf va Ahmad”).

Yelmoya –tez yuradigan (yugurik) tuya.

Tuyaga, tuyachilikka aloqador leksik birliklar: O'zbek tilidagi qator so'zi arabcha “tuya karvoni” ma'nosini bildiruvchi so'zdan olingan. Hozirda tilimizda bu so'z “narsa yoki kishilarning bir yo'l (chiziqli)da joylashgan holati; shunday joylashgan tizimi” (qator uylar; qator teraklar); “saf” kabi ma'nolarda qo'llanadi.

Burundiq – asov, tishlong'ich tuyaning yoki qopag'on itning tumshug'iga kiydirib qo'yiladigan maxsus to'r.

Qimron –tuya sutidan tayyorlanadigan shifobaxsh ichimlik; qimizning bir turi. Har bir qozoqshg o'tovida qimizi, qimroni.

Jaz (shevada) – tuya egari. Tuyaning o'ziga yarasha jazi bor. Maqol.

Juvda (shevada) -tuyaning bo'yni va tizzasidagi jun.

Ovsar – tuya boshiga kiydirib qo'yiladigan maxsus boshvoq. Jig'asi nuqradan, ovsari tilla. Men bo'laman ushbu norning egasi. «Nigor va Zamon».

Rohila I arabcha “miniladigan tuya” so'zidan olingan. Ot-ulov, yuk hayvoni. [7]

Sarbon forscha “tuya boquvchi, tuya haydovchi” boshlab boruvchi” so'zidan olingan. 1) karvonboshi; tuyakash. Sarbon chol bosh chayqaydi, Tuyasini niqtaydi. (X. Davron.) Hozirgi o'zbek tilida ko'chma “yo'l boshlovchi, rahbar, rahnamo” ma'nosida qo'llanadi.

O'rkach bosh ma'noda “tuyaning orqa sirtida bitta yoki ikkita bo'ladigan, qalin yog' qatlamidan iborat do'ng o'simta”. 2) ko'chma “tepalik, tog' va sh. k. ning o'rkachga o'xshash joyi”: Qirning o'rkachi nari chetda yuksalgan tog'ning beliga yetib turar.. edi. (SH. Xolmirzaev, Qil ko'prik.)

O'rkachdor “yirik, katta o'rkachli”. Baxmal, kimxob yopilgan o'rkachdor tuyalarga yoki kattakon zar do'ppilarga o'xshab ketgan barxanlar unga dosh

berolmay chekinardilar. (J. Abdullaxonov, To'fon.)

Qimron – tuya sutidan tayyorlanadigan shifobaxsh ichimlik; qimizning bir turi.

Qo'mlamoq –tuyaga qo'm, egar urmoq, tuyani egarlamok.

Tarkibida “tuya” zoonimi ishtirok etgan maqol va iboralar semantikasi yuqorida qayd etilgan ma'nolar asosida qurilganini ko'rish mumkin. Mazkur maqol va iboralarda til va madaniyatning o'zaro aloqadorligi va ta'sirini ko'rish mumkin.

Tuya mingan qoy orasiga yashirina olmas. Maqolda aql-zakovatli inson har qancha kamtar bo'lmasin, baribir intellectual salohiyatining yuqoriligi bilan boshqalardan ajralib turadi degan ma'no mujassam. [2] Bu o'rinda tuya va qo'y kontekstual antonimiya bo'lib kelmoqda.

Baqiroq tuyanining bori yaxshi, baqirib turgani undan ham yaxshi. Maqol “Baqiroq, o'ynoqi, tepango'ch bo'lgan bilan tuya ison og'irini yengil qiladi. Shu sabab jonivorning boriga shukr qilinadi. Shuningdek, farzandlar kelajagi, baxtini ko'zlab ularni tergap, baqirib-chaqrib tursa ham, o'sha otaning bori yaxshi ekan deya farzandlar ota-onlari o'tgandan so'ng ularning nasihat-o'gitlarini qo'msaganlarida shu maqolni eslashadi.

Tuyasidan qo'ng'iroq'i qimmat. Maqol. Tuya yuk va odamlarni tashuvchi qimmatli vosita bo'lgan. Hammaning ham tuya olishga imkoni bo'lmagan. Tuyalarga qo'ng'iroq osib qo'yilgan. U bu narsaning o'zidan ham biror qismi, anjomi sqalab turishga yoki tuzatishga berilganda to'lanadigan xizmat haqi juda qimmat bo'lganda shu maqol aytiladi.

“Cho'k!” desa tuya ham cho'kadi. “Buncha o'jar bo'lma, bundoq o'zingdan kattalrning gapiga kirgin-da!”– degan ma'noni ifodalaydi.

Tuyaga yantoq kerak bo'lsa, bo'ynini cho'zadi. Har kim o'z tirikchiligi uchun, yoki o'ziga zarur narsa uchun o'zi harakat qilsin degan ma'noda qo'llanadigan maqol.

Kambag'alni tuyaning ustida it qopar. Odatda it eshak, ot ustida ketayotgan odamni qopa oaldi, lekin tuyani ustidagi odamni qopa olamaydi. Chunki har qancha sakrasa ham, yeta olas ekan. Bu maqol kambag'al, nochor kishining ishi yurishmasligi, har qanday sharoitda ham unga nimadir pand berishini bildirganda ishlatiladi.

Tuyaning dumi kalta bo'lsa ham, tulkidan dum so'ramaydi. Bu maqol bilan kishini or-nomusli bo'lishga, har qancha majbur bo'lganda ham birovdan ayniqsa, pastkash, arziyas yordam yoki bergan narsasini har yerda minnat qilib yuruvchi odamdan bir nima so'ramaslikka da'vat etganlar.

Tuya zoonimi ishtirokidagi frazemalar [3]:

Tuyani yutib, dumini ko'rsatmaydi – har qanday katta (ko'p) narsani ham o'zlashtirib, undan nishon, iz qoldirmaslikni bildiruvchi ibora.

Ignaday narsani tuyaday qilmoq –kichik narsani katta qilib ko'rsatmoq, mubolag'a qilmoq, ort-tirib, bo'rttirib yubormoq ma'nosidagi ibora.

Itga qoptirmay, tuyaga teptirmay –mehribonlik bilan, ayab-avaylab, ardoqlab kabi ma'nolarda ishlatiladigan ibora.

Nonini tuya qilmoq – birovning narsasi, ulushi va sh.k. ga sherik bo'lmoq, undan o'marmoq.

Ot bilan tuya bo'larmidi – u qadar katta, ko'p emaslikni bildiruvchi ibora (summa, narsa haqida).

Tuya go'shti yegan – biror ish, narsaning bitishi, amalga oshishi juda sudralishi, cho'zilishini qayd etuvchi ibora.

Tuya hammomni havas qilganday – o'ziga xos va mos bo'lmaydigan, yarashmay-digan urinish, intilish, orzu qilish holatiga nisbatan qo'llanadigan ibora.

Tuyaning dumi yerga tekkanda (yoki yetganda) ro'yobga chiqmaydigan, amalga osh-mayditan ish, quruq va'da ekanlikni bildiruvchi ibora.

O'zbek xalqi ot va tuyadan harakat vositasi, ulov sifatida azaldan unumli

foydalangan. Bu mumtoz asarlarda ham bu jihat o‘z aksini topgan[4].

Xulosa va takliflar. Xalqimiz turmush tarzi hamda madaniyatida tuyaning ahamiyati katta bo‘lgan va bu tilning leksik, frazeologik fondi va maqollarda ham o‘z aksini topgan. Tuya turlari, ularning shevadagi variantlari haqida ma’lumot

berildi. “Tuya” zoonimining maqol va iboralar tarkibida qo‘llanishi va ularning semantik, milliy-madaniy jihatlari talqin qilindi. Lekin tuya bilan bog‘liq urf-odatlar, qadriyatlar, tuyachilikka oid atamalar, joy nomlariga aloqadorlik kabi vb. jihatlar yoritilishi mumkin bo‘lgan masalalar bisyor.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Qo‘shimcha. “O‘zME” davlat nashriyoti. Ziyouz.com
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati . 4-jild. “O‘zME” nashriyoti. T.: 2008.B.– 222.
3. Xolmanova Z., Tosheva D. Zoonim komponentli paremalarning izohli lug‘ati. “Turon zamin ziyo”. T.:2016. B –150-164
4. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z.,O‘razova, K.,Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. T.:2022.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati . 2-jild. “O‘zME” nashriyoti. T.: 2008.B.–118.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati . 4-jild. “O‘zME” nashriyoti. T.: 2008.B.–396.
7. Zaripov B. “Zoonimlarning badiiy san‘at turlarini hosil qilishdagi ishtiroki” (Alisher Navoiy asarlari misolida) NDA. T.:2002. B.19.